SUN’IY INTELLEKT VA HUQUQIY SAVODXONLIK: FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI ANGLASHDA YANGI IMKONIYATLAR

Begzod Qobulov
Bojxona institutining 1-kurs kursanti
Dilnoza Eshqulova
Bojxona institutining 1-kurs kursanti

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi sun’iy intellekt texnologiyalarining fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirishdagi imkoniyatlarini, shuningdek, ushbu texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar va muammolarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, tizimli tahlil va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, sun’iy intellektni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari hamda huquqshunos va texnologiya sohasidagi olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt fuqarolarga qonunchilik mazmunini tushunish, o‘z huquq va majburiyatlarini aniqlash, huquqiy axborotdan foydalanish hamda davlat xizmatlaridan samarali foydalanishda yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning noto‘g‘riligi, shaxsga doir ma’lumotlarning himoyasi, axborot xavfsizligi va texnologiyaga ortiqcha ishonish kabi muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Xulosa sifatida, sun’iy intellekt huquqiy savodxonlikni oshirishda yordamchi vosita bo‘lishi, biroq insonning mustaqil huquqiy tafakkuri va qonuniy mas’uliyatining o‘rnini egallamasligi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, huquqiy savodxonlik, fuqarolarning huquqlari, fuqarolarning majburiyatlari, raqamli huquq, axborot xavfsizligi, shaxsga doir ma’lumotlar, huquqiy ong, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация. *Цель статьи заключается в анализе возможностей технологий искусственного интеллекта в повышении правовой грамотности граждан, а также правовых отношений и проблем, возникающих в процессе использования данных технологий. В исследовании применялись методы нормативно-правового анализа, сравнительно-правового подхода, системного анализа и изучения научной литературы. Были рассмотрены Конституция Республики Узбекистан, нормативно-правовые акты, связанные с развитием искусственного интеллекта, рекомендации международных организаций, а также научные взгляды юристов и исследователей в области технологий. Результаты исследования показали, что искусственный интеллект открывает новые возможности для понимания законодательства, определения своих прав и обязанностей, использования правовой информации и эффективного получения*

государственных услуг. Вместе с тем были выявлены такие проблемы, как недостоверность информации, предоставляемой искусственным интеллектом, защита персональных данных, информационная безопасность и чрезмерное доверие к технологиям. В заключение обосновано, что искусственный интеллект должен выступать вспомогательным инструментом повышения правовой грамотности, но не заменять самостоятельное правовое мышление и юридическую ответственность человека.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, правовая грамотность, права граждан, обязанности граждан, цифровое право, информационная безопасность, персональные данные, правосознание, цифровые технологии.*

Abstract. *The aim of the article is to analyze the opportunities offered by artificial intelligence technologies in improving citizens' legal literacy, as well as the legal relationships and challenges arising from their use. The study employs normative legal analysis, comparative legal methods, systematic analysis, and the examination of academic literature. The Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal regulations concerning the development of artificial intelligence, recommendations of international organizations, and scholarly views of legal and technology researchers were examined. The findings demonstrate that artificial intelligence creates new opportunities for understanding legislation, identifying individual rights and obligations, accessing legal information, and using public services more effectively. At the same time, several challenges were identified, including inaccurate information generated by artificial intelligence, personal data protection, information security, and excessive reliance on technology. The article concludes that artificial intelligence should serve as a supportive tool for improving legal literacy rather than replacing independent legal thinking and individual legal responsibility.*

Keywords: *artificial intelligence, legal literacy, citizens' rights, citizens' obligations, digital law, information security, personal data, legal awareness, digital technologies.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, sun’iy intellekt jadal kirib kelmoqda. Ushbu jarayon davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot va huquqiy munosabatlarda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Huquqiy savodxonlik – bu shaxsning amaldagi qonunchilik normalarini bilishi, o‘z huquq va majburiyatlarini anglashi, huquqiy munosabatlarda mustaqil va ongli ravishda ishtirok etishi hamda buzilgan huquqlarini qonuniy vositalar orqali himoya qila olish qobiliyatidir. Huquqiy savodxonlikning yuqori darajada bo‘lishi jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va

fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.Sun’iy intellekt esa insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, ma’lumotlarni tahlil etish, mustaqil o‘rganish va muayyan vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmuasidir. Uning muhim xususiyati katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qayta ishlash va foydalanuvchiga tushunarli shaklda taqdim etish imkoniyatidir. Aynan shu jihat huquqiy axborotdan foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy savodxonlik va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda amerikalik olimlar Patrisiya Evik (Patricia Ewick) va Syuzan Silbey (Susan S. Silbey)ning ilmiy qarashlari alohida e’tiborga loyiq. Ular o‘zlarining 1998-yilda nashr etilgan «The Common Place of Law: Stories from Everyday Life» («Huquqning kundalik hayotdagi o‘rni») asarida huquqning insonlar kundalik hayotidagi namoyon bo‘lishini tahlil qilganlar. Mualliflar huquqiy ongni faqat qonunlarni bilish bilan cheklamasdan, balki insonlarning qonun bilan kundalik munosabati, huquqiy qoidalarni qanday tushunishi va ulardan qanday foydalanishi bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlaydilar.[4]

Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sun’iy intellekt fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishda amaliy vosita bo‘lishi mumkin. Masalan, fuqaro mehnat shartnomasidagi o‘z huquqlarini, iste’molchi sifatidagi qonuniy manfaatlarini yoki ma’muriy javobgarlik bilan bog‘liq normalarni tushunishda sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bunda murakkab yuridik iboralarni sodda va tushunarli tilda izohlash imkoniyati fuqarolarning qonunchilikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Sun’iy intellektning huquqiy munosabatlarga ta’sirini o‘rganishda italiyalik olim Lusiano Floridining (Luciano Floridi) ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Olim o‘zining 2023-yilda Oxford University Press nashriyotida chop etilgan «The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities» («Sun’iy intellekt etikasi: tamoyillar, muammolar va imkoniyatlar») asarida sun’iy intellekt rivojlanishi bilan bog‘liq axloqiy tamoyillar, inson manfaatlari, texnologik mas’uliyat va ijtimoiy oqibatlarni tahlil qiladi.[5]

Floridining ilmiy yondashuvlaridan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, sun’iy intellektni rivojlantirish jarayonida texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda inson manfaatlari va huquqlarini himoya qilish masalasi ham ustuvor bo‘lishi lozim. Menimcha, ushbu tamoyil huquqiy savodxonlik sohasida ham muhimdir. Chunki fuqaro sun’iy intellektdan foydalanib o‘z huquqlarini o‘rganishi mumkin, biroq uning shaxsiy ma’lumotlari, huquqiy manfaatlari va xavfsizligi ham ishonchli himoya qilinishi zarur. Sun’iy intellektning huquqiy savodxonlikni oshirishdagi imkoniyatlarini bir nechta yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Avvallari fuqaro muayyan huquqiy masalani tushunish uchun yuridik adabiyotlarni o‘rganishi yoki mutaxassisga murojaat qilishi talab etilgan bo‘lsa, bugungi kunda sun’iy

intellekt vositalari orqali qonunchilikdagi ayrim tushunchalar, huquq va majburiyatlar haqida dastlabki ma’lumot olish mumkin. Masalan, fuqaro mehnat shartnomasi bekor qilinganda qanday huquqlarga ega ekanligi yoki iste’molchi sifatida sifatsiz mahsulot xarid qilgan taqdirda qanday choralar ko‘rishi mumkinligini so‘rab, tushuntirish olishi mumkin.

Ikkinchidan, qonunchilikni sodda tilda tushuntirish imkoniyatini yaratadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda murakkab yuridik terminlar va maxsus iboralar ko‘p uchraydi. Bu esa huquqiy bilimga ega bo‘lmagan fuqarolar uchun ayrim normalarni tushunishda qiyinchilik tug‘diradi. Sun’iy intellekt esa ushbu normalarni kundalik hayotiy misollar yordamida izohlashga yordam beradi.

Uchinchidan, fuqarolarning huquqiy murojaatlarini tayyorlash jarayonini yengillashtiradi. Masalan, fuqaro davlat organiga ariza, shikoyat yoki taklif yuborishdan oldin uning mazmunini shakllantirish, kerakli ma’lumotlarni tartibga solish va hujjat tuzilishini o‘rganishda sun’iy intellektdan foydalanishi mumkin. Bu, ayniqsa, huquqiy bilimlari yetarli bo‘lmagan shaxslar uchun qulay imkoniyatdir.

Biroq sun’iy intellektdan foydalanishda muhim bir jihatni unutmaslik kerak: uning javoblari har doim ham to‘g‘ri va amaldagi qonunchilikka mos bo‘lavermaydi. Ayrim hollarda sun’iy intellekt mavjud bo‘lmagan qonun normalariga havola qilishi, eskirgan ma’lumotlarni taqdim etishi yoki muayyan huquqiy vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Shu sababli uning javoblarini rasmiy huquqiy manbalar bilan solishtirish zarur.

Bu borada UNESCO tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan «AI Competency Framework for Students» («O‘quvchilar uchun sun’iy intellekt kompetensiyalari asoslari») nomli hujjat ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur hujjatda sun’iy intellektdan foydalanishda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, uning etik jihatlarini tushunish, texnologik bilimlarni egallash va sun’iy intellekt tizimlariga tanqidiy yondashish kabi kompetensiyalar belgilangan.[6]

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvni huquqiy ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish lozim. Chunki huquqiy savodxon fuqaro sun’iy intellekt tomonidan berilgan har qanday javobni shubhasiz qabul qilmaydi, balki uni qonunchilik normalari bilan taqqoslaydi, axborotning ishonchliligini tekshiradi va mustaqil xulosa chiqaradi.

O‘zbekistonda ham sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish uchun zarur huquqiy hamda tashkiliy asoslar shakllantirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi» tasdiqlangan.[1]

Mazkur strategiyada sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng joriy etish, ushbu yo‘nalishdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va davlat xizmatlarida sun’iy intellektdan foydalanish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, Yagona interaktiv davlat

xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini 2030-yilga qadar 10 foizga yetkazish maqsadi nazarda tutilgan.[1]

Bu esa sun’iy intellektning nafaqat texnologik rivojlanish, balki davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishdagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt va huquqiy savodxonlik masalasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari bilan bog‘liq holda ham tahlil qilish mumkin. Konstitutsiyaning 20-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq ekanligi, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi belgilangan.[2]

Ushbu normadan kelib chiqib, fuqaro o‘z huquqlarini bilishi bilan bir qatorda, qonun bilan belgilangan majburiyatlarini ham anglashi lozim. Masalan, har bir shaxs qonunlarga rioya etishi, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi, o‘z harakatlari uchun qonun doirasida javobgar bo‘lishi kerak. Konstitutsiyaning 31-moddasida esa har bir insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lishi, shuningdek, o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini talab qilish huquqi mustahkamlangan.[2]

Ushbu konstitutsiyaviy qoida sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ayrim fuqarolar sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanishda pasport ma’lumotlari, telefon raqamlari, bank kartasi ma’lumotlari, shaxsiy yozishmalar yoki boshqa maxfiy axborotlarni ehtiyotsizlik bilan kiritishi mumkin. Bunday holatlar shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi va ulardan noqonuniy foydalanish xavfini yuzaga keltiradi.

Shu sababli huquqiy savodxonlikning zamonaviy mazmuni faqat qonunlarni bilish bilan cheklanmasdan, raqamli muhitda o‘z huquqlarini himoya qilish ko‘nikmalarini ham qamrab olishi kerak.

Mazkur yo‘nalishda 2026-yil 21-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-1115-son Qonun alohida e’tiborga loyiq. Ushbu qonun bilan «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunga sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslariga oid o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, insonning huquq va erkinliklariga daxldor yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqat sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosalariga tayanish mumkin emasligi belgilandi. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanib shaxsga doir ma’lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish va ularni tarqatish uchun javobgarlik nazarda tutildi.[3]

Fikrimcha, ushbu qonunchilik yangiligining eng muhim jihati shundaki, u sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishda inson omili va huquqiy kafolatlarning ustuvorligini namoyon etadi. Chunki texnologiya qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, insonning huquq va erkinliklariga daxldor qarorlar ustidan inson nazorati saqlanishi lozim.

Shu o‘rinda sun’iy intellektdan foydalanishda fuqarolarning nafaqat huquqlari, balki majburiyatlari ham mavjudligini ta’kidlash zarur. Masalan, fuqaro ushbu

texnologiyalardan foydalangan holda boshqa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi yolg‘on axborot tarqatmasligi, shaxsiy ma’lumotlardan qonunga xilof ravishda foydalanmasligi, mualliflik huquqlariga rioya qilishi va texnologiyadan noqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi kerak.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan axborotning ishonchliligini tekshirish ham foydalanuvchining muhim mas’uliyatlaridan biridir. Masalan, fuqaro ijtimoiy tarmoqlarda sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan soxta huquqiy maslahat yoki noto‘g‘ri qonunchilik ma’lumotiga duch kelganida, uni tekshirmasdan boshqalarga tarqatmasligi lozim.

Bizning fikrimizcha, sun’iy intellekt va huquqiy savodxonlik o‘rtasidagi munosabatda eng muhim masala – bu texnologiyaga qaramlik emas, balki undan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishdir. Fuqaro sun’iy intellekt yordamida o‘z huquqlarini o‘rganishi mumkin, ammo yakuniy huquqiy xulosani chiqarishda amaldagi qonunchilikka, rasmiy manbalarga va zarur hollarda malakali yurist maslahatiga tayanishi lozim.

Masalan, fuqaro ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasi shartlari buzilgan deb hisoblasa, sun’iy intellekt yordamida mehnat qonunchiligidagi tegishli normalar bilan tanishishi, o‘z huquqlarini aniqlashi va murojaat matnini tayyorlashi mumkin. Biroq muayyan nizoning huquqiy yechimi, dalillarni baholash va qonunchilikni aniq vaziyatga tatbiq etish vakolatli organ yoki mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, sun’iy intellekt fuqarolar va huquqiy axborot o‘rtasidagi masofani qisqartiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish aholining huquqiy bilimlarini oshirish, davlat xizmatlaridan foydalanishni yengillashtirish va huquqiy muammolarni dastlabki bosqichda anglashga yordam beradi. Biroq ushbu jarayonning samaradorligi fuqarolarning raqamli madaniyati, tanqidiy fikrlashi va qonunchilikka hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga ham bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt zamonaviy jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquq va majburiyatlarini anglash hamda huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vositaga aylanmoqda. Uning yordamida murakkab qonunchilik normalarini sodda tilda tushuntirish, huquqiy hujjatlarni tayyorlash va fuqarolarning huquqiy bilimlarini mustaqil ravishda oshirish mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborotning ishonchliligini tekshirish, mualliflik huquqlariga rioya qilish va inson huquqlarini ta’minlash kabi muhim huquqiy masalalarni ham yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, kelajakda huquqiy savodxonlik tushunchasi an’anaviy huquqiy bilimlar bilan bir qatorda raqamli savodxonlik va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini ham qamrab olishi lozim. Buning uchun ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt va huquqiy bilimlarni uyg‘unlashtirgan mashg‘ulotlarni

tashkil etish, aholiga mo‘ljallangan sodda huquqiy axborot platformalarini rivojlantirish hamda sun’iy intellekt vositalari orqali beriladigan huquqiy ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish zarur.

Demak, sun’iy intellektning haqiqiy ahamiyati inson o‘rniga qaror qabul qilishida emas, balki insonning o‘z huquqlarini yaxshiroq anglashi, qonuniy manfaatlarini himoya qilishi va jamiyatda mas’uliyatli huquqiy pozitsiyani shakllantirishiga ko‘maklashishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonuni. «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunga sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga oid o‘zgartirish va qo‘shimchalar.
4. Ewick P., Silbey S. S. The Common Place of Law: Stories from Everyday Life. – Chicago: University of Chicago Press, 1998.
5. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. – Oxford: Oxford University Press, 2023.
6. Miao F., Shiohira K., Lao N. AI Competency Framework for Students. – UNESCO, 2024.